AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH

Boymuminova Dilshoda Otabek qizi
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Aholining samarali mehnat qilishi, moddiy manfaatdorligini oshirish uchun munosib shart-sharoit yaratib berish mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Zero, mehnatga layoqatli kishilarning bandligini ta'minlash fuqarolar turmush farovonligini oshirish, hayot darajasini yuksaltirishning muhim omilidir.

**Kalit so`zlar:** Infratuzilma, ijtimoiy infratuzilma, ijtimoiy rivojlanish, turmush darajasi, ish o`rni, ishsizlik, ijtimoiy soha, "Obod qishloq" davlat dasturi, "Obod mahalla" davlat dasturi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik, xo`jalik yurituvchi subyekt.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy sohani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilib, sohaning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asosi yaratildi. Shundan kelib chiqib, har yili yangi ish o‘rinlari tashkil etish va bandlikni ta'minlashga doir dasturlar qabul qilinib, uning ijrosi izchil ta'minlanayaptiki, pirovardida ishsizlik darajasi yil sayin kamayib bormoqda.

Respublikamizda aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga yetarli shart-sharoitlar yaratish, xizmat ko‘rsatish sohasini samaradorligini oshirish va yangi xizmat turlarini yo‘lga qo‘yish masalasi keyingi yillarda dolzarb ustuvor vazifa sifatida ko‘tarilmoqda. Bu borada, Prezidentimizning 2022-yil 30-dekabrdagi "2023-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-465-son qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra kelgusi 3 yilda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qariyb 77 trln. so‘m ajratildi.

2022−2024-yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Uni amalga oshirishga esa jami 76,8 trln. so‘m, shu jumladan, 2022-yilda mablag‘lar quyidagi yo‘nalishlarga ajratiladi: ijtimoiy sohalar-5,9 trln. so‘m, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari — 1,3 trln. so‘m, yo‘l-transport infratuzilmasi — 2,7 trln. so‘m, irrigatsiya va melioratsiya — 1,5 trln. so‘m, ma'muriy-hududiy, muhandislik-infratuzilma, shuningdek alohida muhim va toifalangan obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish — 3,9 trln. so‘m, boshqa yo‘nalishlar, shu jumladan, yopiq qism va mudofaa organlariga — 4,5 trln. so‘m, turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash — 300 mlrd. so‘m, «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlariga asosan amalga oshiriladigan loyihalarga — 3 trln. so‘m, aeroportlarning aerodrom komplekslarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya ishlariga — 530 mlrd. so‘m ajratildi. Bundan tashqari kelgusi 3 yilga mo‘ljallangan vazifalar qatoridan quyidagilar ham o‘rin olgan: 54 230 o‘quv o‘rni va 8 358 yotoq o‘rniga ega oliy ta'lim muassasalari, 259 101 o‘quv o‘rniga ega, 248 ta sportzaldan iborat umumta'lim, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, 88 310 o‘ringa ega maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 24 213 o‘ringa ega sog‘liqni saqlash muassasalari aholiga xizmat ko‘rsatish uchun foydalanishga topshirilishi nazarda tutilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish respublikamiz miqyosida ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralayotganligi bu mavzuning dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida bu mavzuda tadqiqot olib borilsa aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar, Qashqadaryo viloyatining aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkoni bo`ladi. Quyidagi vazifalarni belgilab olishimiz lozim: aholi

turmush darajasini oshirish bilan bog‘liq infratuzilma obyektlarini nazariy jihatdan mohiyati va mazmunini yoritish; ijtimoiy infratuzilmani innovatsion rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlagan holda uning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlarini asoslash; ijtimoiy infratuzilmani tarmog‘ini investitsion-innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish; ijtimoiy infratuzilmani tarmoqlarida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish; ijtimoiy infratuzilmani innovatsion rivojlantirish natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samaradorlik turlarini aniqlash, ularni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslash. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ma’ruza va asarlarida bayon etilgan aholi turmush darajasi va bandligini ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirish bo‘yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalari, O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodchi olimlarning ushbu yo‘nalishda amalga oshirgan ilmiy ishlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda erishilgan ilg‘or tajribalardan foydalanishimiz mumkin.

Aholi turmush darajasi va ish bilan ta’minlashga oid muammolarni o‘rganish va yechimini topish masalalari barcha jamiyatlarda tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan.

Mamlakatimizda aholi farovonligi va ish bilan bandligini oshirish muammolariga bag‘ishlangan muammolar ko‘pgina olimlarimiz tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Xususan, Q.X.Abdurahmonov, X.P.Abulqosimov, N.Q.Zokirova, Sh.R.Xolmo‘minov, K.Z. Xomitov, I.Ivatov, A.E.Ishmuxamedov va boshqalarning ilmiy-o‘quv va uslubiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Bu masalada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish masalalariga eng muhim vazifalar sifatida qarab, “Inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilanganligi”ning aholi turmush darajasi oshishiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilayotganligidan dalolatdir. Murojaatnomada xalq farovonligi va aholi turmush darajasiga doir tahliliy-tanqidiy ma’lumotlar keltirilib, maqolamizda ushbu jihatlarni ham tadqiqotimiz obyekti sifatida qaraganmiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-sonli farmonida belgilangan vazifalar asosida tahlillar qilib, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi eng muhim vazifalarni belgilab olamiz, jumladan, farmonda qayd etilishicha, aholi uchun qulayliklar yaratish maqsadida yangi yo‘llar barpo etish, transport-logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yangi temir yo‘llar qurish va elektrlashtirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish choralarini ko‘rish lozim.

Q.X. Abdurahmonov, Sh.R. Xolmo‘minovning tadqiqotlarida aholi turmush darajasiga ta’rif berilib, uni oshirishga doir nazariy ma’lumotlar berilgan, jumladan, aholi turmush darajasi deganda ularning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilish darajasi tushuniladi. Biz maqolada ushbu ta’rif asosida statistik tahlillar qilib, tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqamiz.

A. O‘lmasovning “Iqtisodiyot asoslari” kitobida aholi turmush darajasi va farovonligining bir nechta ta’riflari nazariy jihatdan keltirilib, u muntazam o‘zgarib turadigan, turli ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish yuzasidan taklif, tavsiyalar keltirilgan.

G‘.L. Xusainov, P.I. Sayitkulova mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish masalalari, jumladan, 2017-yilda o‘zbekistonliklarni narxlar, kommunal xizmatlar va ijara haqi, kreditlar,

soliqlarni to‘lashdagi qarzlar tufayli kelib chiqqan muammolar tashvishga soldi. Gaz, ichimlik suvi bilan ta’minlash masalalari, maktabgacha ta’lim muassasalarining yetishmasligi, yuqori bo‘lmagan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar ham fuqarolarning ayrim toifalari uchun tashvish va bezovtalik manbalari tahlil qilinib, ushbu tizimni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bozor munosabatlariga asoslangan O‘zbekiston iqtisodiyotida xodimlarning ish haqi masalalari to‘g‘risida mualliflarning ilmiy qarashlari bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-465-son qarori (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. (https://president.uz/oz/lists/view/1371).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son)
4. Abdurahmonov Q.H, Xolmo‘minov Sh.R. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. Toshkent - 2004 yil.16-bet.
5. O’lmasov A. “Iqtisodiyot asoslari”. T.: Mehnat - 1997 yil, 40-bet.

WORDLY KNOWLEDGE